

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI KAFEDRASI

**Boshlang'ich ta'lim innovatsion
klasteri va raqamli ta'lim:
ehtiyoj, zarurat, natija**
Respublika miqyosidagi
ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
(10 MART, 2021 YIL)

Tarqatish hududi:
<http://interscience.uz/>
onlayn

Respublika ilmiy-nazariy anjumani tashkiliy qo'mitasi:

Raisi: O.X.Xamidov - Buxoro davlat universiteti rektori.

Rais o'rinbosari: O.S.Qahhorov - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor, rais muovini

A'zolari:

Q.R.To'qsonov, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani.
D.N.Mustafayeva, Buxoro viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i

G.T. Zaripov, IT, I va IPKTB bo'limi boshlig'i.

Yu.Yu.Azimov, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti o'quv ishlari
bo'yicha dekan o'rinbosari.

N.O. Safarova, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti yoshlar bilan
ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari.

M.Yo.Ro'ziyeva, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri.

G.R.Akramova, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo'yicha mas'ul.

B.S.Jamilova, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini dotsenti.

S.Akramova, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini o'qituvchisi.

S. G'.Luqmonova, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini o'qituvchisi, kotib

To'plamga kiritilgan maqola va tezislardagi fikr va ma'lumotlarning
to'g'riligiga mualliflar mas'ul.

ISBN

MUNDARIJA

KIRISH	8
1-SHO'BA. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION KLASTER: MUAMMO VA YECHIMLAR....	9
<u>O.X.Xamidov</u> . Ta'lim klasterining afzalliklari.....	9
<u>Ғофуржон Мухамедов</u> Педагогик таълим кластери: чирчиқ тажрибаси	11
<u>Maxmudov M.X</u> Ta'limga klaster yondashuvning nazariy-metodologik asoslari	15
<u>To'xsanov Q.R.</u> Maktab - universitet - ishlab chiqarish bosqichlarida klaster yondashuvlar – samaradorlikning kafolati	16
<u>Ro'ziyeva M.Y.</u> Raqamli ta'lim jarayonining shakllanishi va rivojlanish omillari.....	19
<u>Б.С.Жамилова</u> Болалар ижодий тафаккурини шакллантиришда педагогик таълим инновацион кластери фаолиятининг самарадорлиги	21
<u>Ходжамқулов У.</u> Педагогик таълим инновацион кластери: хорижий тажриба ва миллий ташаббус	24
<u>Akramova G.R.</u> Boshlang'ich ta'limda innovatsion klasterga ehtiyoj	30
<u>А.Р.Ҳамроев</u> Бошланғич таълимга замонавий ёндашув: натижа ва таҳлил	31
<u>Жамилова Б.С., Нигора Муртазоева</u> “Мактаб-лаборатория” тажриба инновацион майдончалари истиқболли лойиҳалар кафолати.....	33
<u>Ziyodova Zahro</u> Badiiy asarni tushunish va tahlil qila olish ko`nikmasini shakllantirishda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ahamiyati	34
<u>Subhonova S. U.</u> Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya va innovatsion loyihalar klaster modeli namunasi sifatida	35
<u>Kuzmanova G.B.</u> Boshlang'ich sinf matematika darslarida matnli masalalrni yechishga o'rgatishda innovatsion klaster usuli	38
<u>Миртурсунова Ю.А</u> Термин «образовательный кластер» в современной методике	41
2-SHO'BA. BOSHLANG'ICH TA'LIM INNOVATSION KLASTERINI TASHKIL ETISH ZARURATI ...	45
<u>Тешабоева З. С</u> Илм-фан ва таълим тизимида кластер- соғлом рақобат омили.....	45
<u>Boltayeva M. A.</u> Badiiy asar tahlili – o'quvchi nutqini o'stirishda muhim omil	46
<u>Хусенова М. Х.</u> Pirls халқаро баҳолаш тизими	48
<u>Умарова З.</u> Бошланғич синфларда педагогик конфликтларни бартараф этишнинг инновацион кластери	51
<u>Очилов Ф.И.</u> Бошланғич синф ўқувчиларига табиий-илмий билимларни ўргатишнинг мавжуд муаммоларини бартараф этишда кластернинг аҳамияти.....	54
<u>Boboqulova.S.B, Isoyeva.M.B</u> Markov jarayonlari va zanjiri	56
3- SHO'BA. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION KLASTER - FANLARARO INTEGRATSIYA VA UZVIYLIKNI TA'MINLASH KAFOLATI.....	59
<u>Абдуллаев А. А.</u> Мактабгача таълимда кластер самараси.....	59
<u>Бердиева М. М., Курбонмуродова Ф.</u> PIRLS баҳолаш тизими асосида саволлар миллий базасини яратиш долзарб аҳамияти	61
<u>Халилова Р. Р.</u> Виртуал мулоқот имкониятлари.....	63

Shundagina kelajak texnologiyalar o'zbek ta'limi zahirida yaratiladi. Buning natijasida iqtisod va siyosat, jamiyat mavqei oshadi. Yo'qsa, boshqalar yaratgan texnologiya va bilimni o'zlashtirish uchun umrni sarflayveramiz. Dunyoda o'z o'rnimizni topa olishimiz uchun esa shunchaki hali ochilmagan kelajak bilimlari tomonga sakrash kerak xolos. Bularni biz bajara olamiz, chunki bizning tomirimizda buyuk ajdodlar, mutafakkirlarimiz Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Alisher Navoiy kabilarning qoni oqmoqda.

Biz yangilanish-u kashfiyotlar ostonasiga juda yaqin keldik. Maqsadni belgilab olganmiz va bizdan avvalgi ustozlar o'z hayotini institutga, Vatanga bag'ishlagani singari fidoyilik talab etiladi shunda, albatta, maqsadga yetamiz.

Raqamli ta'limga o'tilsada ta'lim tizimida hech qachon o'zgarmaydigan asos ustunlar mavjud. Bu "ta'lim oluvchi" va "ta'lim beruvchi" ya'ni "talaba" va "o'qituvchi"dir. Agar ta'limda ana shu ikki tomonning dunyoqarashini o'zgartira olsak, ya'ni o'quvchini, talabani mustaqil ta'lim olishga, bilim olish yo'llarini mustaqil izlashga, o'qituvchini esa yangi bilimlar bilan raqamli texnologiyalar asosida qurollantirib talabaga bilim olish yo'llarini o'rgatishini yo'lga qo'ya olsak, ta'lim tizimi qaysi shaklga o'tishidan qat'iy nazar ta'limda sifat paydo bo'ladi.

Bunga qanday erishamiz?

Birinchidan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy ta'lim muassasalarida qo'llash.

Ikkinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

Uchinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish;

To'rtinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video-konferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.

Beshinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

**БОЛАЛАР ИЖОДИЙ ТАФАККУРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ПЕДАГОГИК
ТАЪЛИМ ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИ ФАОЛИЯТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ**

Б.С.Жамилова,

БухДУ доценти, филология фанлари номзоди

Дунё яралганидан буён инсон омилининг муайян ижодий куввати тинимсиз ривожланиб, такомиллашиб келмоқда. Янги нарсаларни яратишга бўлган қизиқиш жадаллиги эътирофга лойиқ. Педагогик таълимдаги ислохотлар, жумладан, инновацион

кластер ҳам ана шундай ижодий тафаккур маҳсули сифатида диққатга сазовор. Бу ёруғ оламда жамият пайдо бўлганидан то ҳанузгача болалар олами ҳам катталар билан ёнма-ён яратувчилик тасаввурлари, ижодийлик характери билан камол топиб келмоқда. Энг қадимги даврларда яратилган халқ оғзаки ижодининг поэтик намуналари ижодий тафаккурнинг ёрқин ифодаси сифатида бизгача етиб келган. Инсонлар айнан тасаввур орқали эшитган воқеалари, ҳикоя қилинган эртақлар, дoston ва маталлар мазмунини ўз хотираларида қайта жонлантириш орқали бой ижодий тафаккурлари авлоддан-авлодга силсилавий равишда ўтиб, ўсиб келган. Инсон камолотининг чўққиси ҳам аслида ижодий тасаввур ва тафаккурнинг муйян даврларда, муайян фаолият ва жараёнларда намоён бўлиши, шу орқали инсон шахсининг юқори даражада ривожланиб бораётганидан далолат беради.

Жумладан, болалар ижодий тафаккурини ривожлантиришда адабиёт ва бадиий асарлар шу маънода долзарб аҳамиятга эга.

“Айниқса, – деб таъкидлаган эди биринчи Президентимиз И.А.Каримов ўзининг “Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор” йўриқномасида, – биз учун гоят муҳим аҳамиятга эга бўлган болалар адабиётини ривожлантиришга алоҳида эътибор беришимиз, мустақил фикрлайдиган шахсларнинг шаклланиши, ҳар қандай китобхонлик, мутолаа маданияти болаликдан бошланишини доимо ёдда тутишимиз лозим”.¹

Дарҳақиқат, мамлакатимиз раҳбарининг болалар китобхонлигига, адабиётга бўлган эътибори ҳам мамлакатимиз ёш авлоди маънавий тафаккурида ижобий ўзгариш ясади. Бу жиҳатдан Ўзбекистон Республикаси Президентининг адабиёт, матбуот, таълим-тарбияга оид қатор фармойиш ва қарорлари, чиқарилаётган қонунлар эътиборга лойиқ. “Ҳаммамиз учун айти пайтда жуда муҳим аҳамиятга эга бўлган масала, – таъкидлайди Ш.М.Мирзиёев, – яъни китобхонликни кенг ёйиш ва ёшларимизнинг китобга бўлган муҳаббатини, уларнинг маънавий иммунитетини янада оширишга қаратилган ишларимизни янги босқичга олиб чиқиш вазифаси турибди”.²

Чиндан ҳам мамлакатимиз раҳбарининг китобхонлик ва адабиётга бўлган муносабати нафақат фармойиш ва қарорларда, балки амалий ҳаракатларда ҳам яққол кўринаётир. 2017 йилдан буён ўтказилаётган анъанавий китобхонликнинг Давлат сиёсати даражасига кўтарилиши, айнан бадиий ижод намуналари, адабий асарлар бўйича болалар ва ўсмирлар салоҳияти синалаётганига ҳам маънавий тафаккуримиз янгиланиши самараси деб қараш мумкин. Шунингдек, Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 20 февраль куни Анқара шаҳрида Туркия Республикаси Президенти ҳузуридаги Халқ кутубхонасининг очилиш маросимида иштирок этиши, у ердаги нутқида:

– Дунёдаги ҳар қайси давлат, ҳар қайси халқ биринчи навбатда ўзининг интеллектуал салоҳияти, юксак маънавияти билан қудратлидир. Бундай енгилмас куч манбаи эса аввало инсоният тафаккурининг буюк кашфиёти – китоб ва кутубхоналарда, – дея таъкидлаши ҳам шундандир.³

Бундан ташқари, юртимиз раҳбарининг Бўка туманида ташкил этилган Маданият ва маърифат экопаркини бориб кўриши ва у ерда ёшлар учун яратилган шароитлар билан танишиб: “Худудларга китоб етказиб бериш яхши. Лекин уларни ўқиш, ўқитиш етарли даражада эмас. *Болаларимизни бозга ёшидан, бошланғич синфлардан кичик-кичик китобларга ўргатиш, шу орқали уларни китобсевар этиб улғайтириш зарур. Шундагина жамиятимизда китобхонлик муҳити шаклланади, бошқалар ҳам китоб ўқишга қайтади*”, – деган сўзларида ҳикмат бор.⁴ (Таъкид бизники- Б.Ж.)

¹ Ўзбекистон адабиёти ва санъати. // 2009 йил, 3 июль

² Ш.Мирзиёев Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалиқ қондаси бўлиши керак. Тошкент: Ўзбекистон. – 2017.

³ <http://uza.uz/oz/politics/shavkat-mirziyev-ar-aysi-davlat-ar-aysi-khal-intellektual-s-20-02-2020>

⁴ <https://sputniknews-uz.com/society/20190602/11667426/Kitob-ish-darazhasi-etarli-emas--Shavkat-Mirziyev.html>

Инсон маънавий оламининг инкишофи, келажакнинг тамал тоши болаликда кашф этилиши руҳшуносликда қайд этилган. Болалик чиндан ҳам инсон умрининг бебаҳо даври сифатида бутун ажойиботлари билан катталарни ҳамиша ром этиб келган; катталар олами эса самимий ва болаларча бегуборлик тарк этилган давр эканини англай билиш учун ҳам жамият тафаккурида янгилашни эҳтиёжи заруратга айланган.

Бинобарин, таълим тизимидаги кластер айнан болалар ижодий тафаккурини ривожлантиришга хизмат қилиши нуқтаи назаридан ёндашилса, юқоридаги фикрларнинг амалиётга татбиқ қилинишини кузатиш мумкин. Негаки, бу ислохот тадқиқотчиларининг фикрича, педагогик кластер шахсни камол топиши ва етук кадр бўлишига қаратилган бўлиб, унинг боғлиқлиги – боғча, мактаб, лицей, коллеж, олий ўқув юрти, докторантура, малака ошириш каби жараёнларни қамраб олувчи бутун умр давомидаги таълим занжирини бир-бирига боғлангандир.

Таъбир жоиз бўлса, болаларнинг китобга ижодий муносабатини шакллантириш орқали ижодий тафаккурлашга ўргатишда бу тизим муҳим роль ўйнайди. Чунки ўқувчиларнинг тасаввурлари ва ижодий фаолиятларини кенгайтиришда китоблар, бадиий асар, шеър ва ҳикоялар зарурий воситадир. Бу ўқувчиларда тасаввур қилиш орқали ажойиб-ғаройиботлар оламига “саёҳат” қиладилар, асар қаҳрамонлари билан “мулоқотга киришадилар”, уларнинг ўрнига ўзларини қўйиб, муаммоли вазиятларга “дуч келадилар” ҳамда ундан чиқиб кетиш йўлини излайдилар. Бунинг ёрқин мисолини етук болалар шоири К.Чуковскийнинг болалар асарлари ҳақидаги фикридан ҳам ўқиш мумкин. Масалан, болалар китобхонлигининг энг кичик аудиторияси ҳисобланувчи мактабгача тарбия ёшидаги болаларга мўлжалланган шеърларнинг ҳар бир мисрасида расом учун материал бўлишига катта аҳамият бериш, образ ва оҳанг бирикиб, бир бутунни ташкил этиши ҳақидаги фикрлари ҳамон долзарб. Шу сабабли бундай сифатга эга бўлган шеърларга “графикали шеър” деб таъриф берилади. Шунингдек, болалар учун ёзилган асарларда образларнинг зудлик билан алмашинуви, негаки кичкинтойлар ҳали уларнинг сифатини эмас, ҳаракатларини қабул қилиши, зотан серҳаракат, персонажларга бой асарлар кичкинтойлар қизиқишини ортириши ўринли таъкидланган.

Қўшиқ ва рақснинг ҳам шеър учун зарурлиги, шундан улар завқ-шавқ туюши кабилар ҳам шу маънода болалар китобхонлигининг муҳим элементи саналган. Болалар учун ёзилган шеърларда поэтик нутқнинг юқори даражада мусикийлиги ҳамда қофияси бир-бирига жуда яқин бўлиши кабилар аслида айнан болалар ижодий тафаккурининг шаклланиш босқичи ҳисобланади десак янглишмаймиз. Кичкинтойлар ана шу завқовар элементларга қизиқиб, уни куйлайдилар, осонгина ёд оладилар, муҳими эса шунга монанд янги сўз ва қофиялар топадилар. Бу жараён мактабга илк қадам қўйган кичик мактаб ёшидаги болалар китобхонлиги, ўсмирларни ҳам қамраб олгандагина, таълимнинг кейинги босқичларида ўқувчилар ҳар қандай бадиий асарни, шеърини матнни таҳлил қила олиш қобилиятига эга бўлишларига шубҳа йўқ.

Айталик, юқори синф ўқувчилари асар қаҳрамонларига тақлид қилиб кундаликлар, саёҳатномалар ёзадилар, турли-туман тадбирлар учун сценарийлар ёзадилар. Мазкур усуллар болаларнинг фикрлаш жараёнларини жадаллаштиради, идрокини фаоллаштиради.

Коллеж-лицей ҳамда олийгоҳ талабалари асардаги бирор муаммо ҳақида тушунчага эга бўлишлари керак (таълимнинг бу методида рангли, лавҳали суратлар, мавзуга оид 5-6 дақиқалик экранлаштирилган ҳужжатли фильмлар намойиш этилиб, қалтис вазиятларда “Менинг шахсий мулоҳазам?”, “Қандай йўл тутмоқ тўғри бўларди?” деган саволлар атрофида мушоҳада юритилади).

Ўқитувчи эвристик суҳбат орқали талабаларни ижодий мушоҳадага чорлайди, муаммоли вазиятлар яратиб, уларни ижодкорликка, мустақил фикрлашга йўналтиришда юқори натижа беради. Бунда талабалар ахборотларни таҳлил этишда индуктив ва дедуктив метод, яъни оддийдан мураккабга ва аксинча, мураккаб вазиятлардан оддийга

қараб борилади. Яна талабаларнинг ижодий-танқидий фикрлашини ривожлантиришга қаратилган самарали усуллардан бири эркин фикрлаш дарслари ҳисобланади.

Шу ўринда реал оламга назар ташласак, немис олимлари ва кашфиётчиларининг, шоиру ёзувчиларининг жаҳон ва Европа адабиёти, санъати, илм-фани тараққиётига қўшган ҳиссалари беқиёс эканини биламиз. Эйнштейн, Бисмарк, Гутенберг, Бетховен, Бах, Моцарт, Гёте . бу рўйхатни ҳали анча давом эттириш мумкин. Лекин немислар таниқли аждодлари билан фахрланиш, уларнинг оламшумул ишларини мадҳ этишдан кўра, аксинча, давлат ва сиёсат янги, ёш лидерларни яратиш, танитиш, уларнинг ишларини халқ эътиборига тақдим қилиш, буюклик йўлида имкониятлар яратиб бериш билан машғулликни англаш мумкин. Балки шунинг учундир, - дейди тадқиқотчилар,- Германияда оламни лол қолдираётган, жуда катта от кучига эга, бутун бошли заводларни юритаётган роботларни яратган янги Эйнштейнлар; кесиб ташланган бармоқларни ўстираётган янги Гутенберглар етишмоқда.

Бундан аёнлашадики, ёш авлод камолоти учун ҳам педагогик таълимнинг инновацион кластерига эҳтиёж жуда зарур. Таълим тизимининг барча бўғинлари ҳар бир соҳада ягона маслақда бирлашмоғи, ўзаро ҳамкорлик, манфаатдорлик асосида фаолият юритсагина, ОТМ профессор-ўқитувчилари билан МТМ ёки умумтаълим мактабларининг педагоглари бир муаммо- чинакам рақобатбардош кадр тайёрлаш мақсадида бирлашадилар.

Тавсия этиладиган адабиётлар:

1. Jamilova Bashorat Sattorovna, Nuriddinova Shaxnoza O'zbek bolalar adabiyotida badiiy tafakkur yangilanishining tadriji . Til va adabiyot ta'limi. 2020- yil, 12-son, 20-27-b. https://tilvaadabiyot.uz/f/12-son_2020_jil_mukova-mun.pdf

2. Bashorat Jamilova . Description of the spirit of teenagers in uzbek children's prose . MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/134/136https://>

ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИ: ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА МИЛЛИЙ ТАШАББУС

Умид Негматович Ходжамқулов,
Чирчиқ давлат педагогика институти доценти,
педагогика фенлари доктори
hojatqulov77@mail.ru
+99893 7246406

Аннотация. Ушбу мақолада таълим кластерлари бўйича хорижий мамлакатлар тажрибаси таҳлил қилинган. Хориж тажрибаси асосида миллий таълим тизимимизда педагогик таълимни кластерлаштиришнинг зарур шартлари асосланган.

Калит сўзлар: кластер, таълим кластери, инновацион таълим кластери, педагогик таълим кластери, техник университетлар уюшмаси, кластер таснифлари.

ИННОВАЦИОННЫЙ КЛАСТЕР ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНАЯ ИНИЦИАТИВА

Умид Негматович Ходжамқулов,
Доцент Чирчиқского государственного педагогического института,
доктор педагогических наук

Аннотация. В данной статье анализируется опыт зарубежных стран в создании образовательных кластеров. На основе зарубежного опыта созданы необходимые условия для кластеризации педагогического образования в нашей национальной системе образования.